

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJning  
2021 yil “26” - oktyabrdagi 178 - sonli

Buyrug‘iga

ILOVA

**“Hududiy elektr tarmoqlari” Aksiyadorlik jamiyati  
va tarkibiy korxonalarida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-  
harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish  
REGLAMENTI**

**1-bob. Umumiy koidalar**

1. Mazkur Reglament “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ va tarkibiy korxonalari (keyingi o‘rinlarda –Jamiyat)da korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va tegishli ta’sir choralari ko‘rishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Reglament Jamiyatdagi aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqida kelib tushgan xabarlar bilan ishlashning asosiy tamoyillari, shuningdek, xabarlarini qabul qilish, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish va ko‘rib chiqish, shuningdek, Jamiyat Boshqaruv raisiga hisobot taqdim etish tartibini belgilaydi.

3. Mazkur Reglament maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**ishonch telefoni** – Jamiyatga telefon orqali kelib tushadigan murojaatlarni markazlashgan holda qabul qilish, tasniflash va tizimlashtirish, shuningdek, o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishini monitoring qilish imkonini beruvchi tizim;

**murojaatchi** – aloqa kanallari orqali Jamiyatdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida axborot berish uchun murojaat qilgan har qanday jismoniy va (yoki) yuridik shaxs, xodim;

**manfaatlar to‘qnashuvi** – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, Jamiyatlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

**korrupsiya** – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

**korrupsiyaviy xarakatlar** – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlarini yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

**korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi** – amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarni korrupsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, Jamiyat xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va axloqiy faoliyat olib borishlarini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar majmui;

**korrupsiyaviy xavf-xatar** – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan Jamiyat nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko‘zlab korrupsiyaviy harakatlarni sodir etish xavfi;

**taaluqli xabar** – Jamiyatdagi korrupsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo‘lgan xabar;

**xodim** – Jamiyat bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi** – xodim tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida o‘zi yoki uchinchi shaxslarning manfaatlarini yo‘lida xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy boyliklar, boshqa mol-mulk va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijoriy yoki notijoriy manfaatlarini).

4. Jamiyat korrupsiyaviy harakatlar haqida axborot berishga mo‘ljallangan aloqa kanallarining ishini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etadi:

**konfidentsiallik va xavfsizlik** – aloqa kanallaridagi xabarlardan foydalanishga ruxsat berilgan Jamiyatning barcha vakolatli shaxslari ushbu xabarlarni vakolatga ega bo‘lmagan shaxslarga berish (oshkor qilish) ga haqqi yo‘q. Agar murojaatchi o‘z xabarini yuborganligi xaqida boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga o‘z xohishiga ko‘ra, jumladan, ehtiyotsizligi natijasida oshkor qilgan bo‘lsa, Jamiyat uning oshkor bo‘lishiga javobgar bo‘lmaydi;

**qonuniylik** – Jamiyat aloqa kanallariga kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, qayta ishlash va ko‘rib chiqish qat‘iy ravishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va ushbu Reglamentga muvofiq amalga oshiriladi;

**murojaatchining ta'qib qilinmasligi** – aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy harakatlar haqida o'z xohishiga ko'ra xabar bergan jismoniy va yuridik shaxs, xususan Jamiyat xodimi xabarning mazmunidan qat'i nazar biron-bir javobgarlikka tortilmaydi;

**murojaatchi bilan majburiy tartibdagi qayta aloqa** – agar xabar anonim bo'lmasa, uni ko'rib chiqish natijalari Jamiyat tomonidan murojaatchiga yetkazilishi lozim;

**ta'sir choralari qo'llashning majburiyligi** – korrupsiya fakti tasdiqlangan taqdirda, Jamiyat aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi.

## **2-bob. Korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari**

**5.** Taaluqli xabar quyidagi aloqa kanallaridan yuborilishi mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi (<https://pm.gov.uz/>) orqali;

Jamiyatning rasmiy veb-sayti yoki elektron pochta orqali;  
Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari (misol uchun Facebookdagi rasmiy sahifasi (<https://www.facebook.com/hududiyelektrtarmoqlari>) orqali;

Jamiyatning telefon raqamlari orqali (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali);

Jamiyatning telegram boti (<https://t.me/hetmuloqot>)

Jamiyatga og'zaki (shaxsan) murojaat qilish;

huquqni mahofaza qiluvchi organlar orqali;

mazkur Reglamentda ko'rsatilmagan boshqa aloqa kanallari.

**6.** Jamiyat aloqa kanallari to'g'risidagi axborotni rasmiy veb-sayt, va ijtimoiy tarmoqdagi sahifa va kanallariga joylashtiradi, shuningdek, xodimlarga davriy ravishda yuboriladigan elektron xatlar tarqatmalariga va o'quv materiallariga kiritadi, Jamiyat binosida joylashtiriladigan tematik plakatlar va hokazolarda aks ettiradi.

## **3-bob. Aloqa kanallari orqali kelib tushayotgan taaluqli xabarlarni qabul qilish**

**7.** Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat xizmati (keyingi o'rinlarda – Ichki nazorat tuzilmasi) Jamiyatning aloqa kanallaridan kelib tushgan taaluqli xabarlarni ko'rib chiqishga mas'ul hisoblanadi.

**8.** Jamiyatning quyidagi aloqa kanallaridan kelib tushgan taaluqli xabarlar Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy

va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi namunaviy Nizom va Jamiyatning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi Nizom talablarida nazarda tutilgan tartibda ro'yxatga olinadi va rezolyusiya uchun Jamiyat rahbariga chiqariladi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali;

Jamiyatning rasmiy veb-sayti yoki elektron pochta orqali;

Jamiyatning telefon raqamlari orqali (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali);

Jamiyatga og'zaki (shaxsan) murojaat qilish;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar orqali.

**9.** Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari va telegram boti orqali kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish uchun Ichki nazorat tuzilmasi mas'ul xodimi tayinlanadi.

Bunda, taaluqli xabar kelib tushganda Ichki nazorat tuzilmasi mas'ul xodimi murojaatchi bilan elektron yozishma yo'li bilan yoki telefon orqali bog'lanib zarur axborotni aniqlashtiradi, xabarni Reyestrda ro'yxatga oladi va ma'lumotni Jamiyat raxbariga kiritadi.

Ichki nazorat tuzilmasi mas'ul xodimi kelib tushadigan xabarlarni dushanbadan jumagacha soat 09:00 dan 18:00 ga qadar tahlil qiladi. Agar xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushsa, bu xabar navbatdagi ish kunida aniqlashtirish uchun saqlanadi.

**10.** Agar murojaatchi o'z xabarini tasdiqlash uchun qo'shimcha materiallarga, masalan, fotomateriallar, hujjatlar, audio va videoyozuvlarga ega bo'lsa, murojaatni qabul qilishga mas'ul xodim ularni taqdim etish bo'yicha foydalaniladigan aloqa kanallarini (telegram boti yoki elektron pochta)ni ko'rsatadi va taqdim etiladigan ma'lumotni konfidensialligini bildiradi. Mazkur ma'lumotlar taaluqli xabarga ilova sifatida rasmiylashtiriladi.

**11.** Jamiyat rahbari taaluqli xabarni tezkorlik bilan tahlil qilish va ko'rib chiqish uchun Jamiyatning Ichki nazorat tuzilmasiga topshiriq tushiradi.

**12.** Jamiyatning Ichki nazorat tuzilmasi taaluqli xabarni olgandan keyin 1 (bir) soat ichida uni Jamiyatda korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reyestrda (keyingi o'rinlarda – Reyestr) ro'yxatga olishi va ushbu Reglamentning 4-bobiga muvofiq ko'rib chiqishi lozim.

**13.** Jamiyat murojaatchilarga xodim tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida anonim xabarlar qoldirish imkoniyatini beradi.

Anonim xabar kelib tushgan taqdirda Jamiyatning ma'sul xodimi, imkon mavjud bo'lgan taqdirda, quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

Jamiyatga kelib tushgan xabarga javob berish uchun murojaatchi bilan bog'lanma olmasliklari mumkinligi haqida ma'lum qilishi;

qo'shimcha zarur ma'lumot olish imkoniyati bo'lmagan taqdirda xabarni to'liq va har tomonlama o'rgana olmasliklarini bildirishi;

murojaatchiga u bilan bog'lanish uchun anonim aloqa kanali tashkil qilishni taklif qiladi (shaxs ko'rsatilmagan elektron pochta manzili, Telegramdagi maxfiy chat va.b.);

Murojaatchi o'z arizasidan voz kechmagan taqdirda, mazkur Reglamentda nazarda tutilgan tartibda xabarni qabul qilishi shart.

**14.** Jamiyat xodimlari tomonidan olingan xabarlarni ko'rib chiqish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etishning sabab va sharoitlari ham tahlil qilinadi va kelgusida ularning oldini olish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi.

**15.** Olingan xabarlar bo'yicha barcha taaluqli materiallar, hujjatlar va ma'lumotlar (shu jumladan, qabul qilingan qarorlar va murojaatchilarga yuborilgan javoblar) Murojaatlar bilan ishlash tuzilmasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatga, shu bilan birga 10 yildan kam bo'lmagan muddatga saqlanishi kerak.

**16.** Taaluqli xabar Jamiyatning hududiy va tarkibiy bo'linmalarga kelib tushgan taqdirda, uni qabul qilgan mas'ul xodimlar zudlik bilan yozma shaklda hududiy (tarkibiy) korxonalar rahbari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul bo'limni kelib tushgan xabar to'g'risida xabardor qiladi, ular o'z navbatida ushbu xabarni Jamiyatning markaziy apparatidagi Ichki nazorat tuzilmasiga yuboradi. Ichki nazorat tuzilmasi olingan xabarni 11-bobida bayon etilgan tartibga muvofiq ko'rib chiqadi.

**17.** Jamiyatning hududiy va tarkibiy bo'linmalari o'zlarining Reyestrini yuritadi.

#### **4-bob. Korrupsiyaviy harakatlar haqidagi xabarlarni ko'rib chiqish**

**18.** Ichki nazorat tuzilmasiga kelib tushgan barcha taaluqli xabarlar ushbu tuzilmaning mas'ul xodimlari yoki Jamiyat rahbari topshirig'iga asosan boshqa bo'linmalar tomonidan ko'rib chiqiladi.

**19.** Korrupsiyaviy harakatlari to'g'risidagi xabarlarni ko'rib chiqish jarayoniga, harakatlari ustidan taaluqli xabar kelib tushgan yoki ko'rib chiqish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xodimlarni jalb qilish man etiladi.

**20.** Taaluqli xabar kelib tushganda Ichki nazorat tuzilmasi xodimi dastlabki tekshirish o'tkazib, uning taaluqliligini tahlil qiladi, ya'ni xabarda ko'rsatilgan

ma'lumotning Jamiyat tizimiga taaluqli korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka va (yoki) manfaatlar to'qnashuviga tegishlilikini tekshiradi.

Dastlabki tekshirish taaluqli xabar Ichki nazorat tuzilmasiga kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

**21.** Mazkur Reglamentning 19-bandida nazarda tutilgan dastlabki tekshirish natijalaridan qat'i nazar, bu haqdagi axborot Reyestrda kiritiladi.

**22.** Agar Ichki nazorat tuzilmasi xodimi xabar taaluqli emas degan xulosaga kelsa, bu xabar bir ish kuni ichida Jamiyatning tegishli tuzilmasiga bildirgi asosida o'tkazilishi lozim.

**23.** Agar xabarda korrupsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqida ma'lumot hamda xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa, Ichki nazorat tuzilmasi xodimi ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o'tkazish tashabbusi bilan chiqadi.

**24.** Taaluqli xabarlarni mazmunan ko'rib chiqish Jamiyatga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oy ichida, tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallarni so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari, Jamiyatning rahbari tomonidan istisno tariqasida uzog'i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga (anonim murojaatlardan tashqari) xabar qilinadi.

**25.** Murojaatga javob Ichki nazorat tuzilmasi tomonidan tayyorlanib, Jamiyat rahbari imzosi bilan rasmiylashtiriladi.

**26.** Taaluqli xabarlarni ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra o'rganish natijalari va qo'llanilgan ta'sir choralari ko'rsatilgan javob xati tayyorlanadi va belgilangan tartibda murojaatchiga yuboriladi.

**27.** Ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar va telegram-bot orqali kelib tushgan taaluqli xabarga javob murojaatchiga elektron shaklda ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar yoki telegram-bot orqali yuboriladi.

### **5-bob. Hisobdorlik**

**28.** Reyestrda Ichki nazorat tuzilmasi xodimlari, xabarlarni ko'rib chiqishda ishtirok etgan tegishli boshqa davlat organlari va Jamiyatlarining xodimlari (faqat shunday xabarlarga doir), Jamiyat rahbari foydalanishi mumkin.

**29.** Reyestr ma'lumotlari asosida Ichki nazorat tuzilmasi har chorakda Jamiyat rahbariga qabul qilingan korrupsiyaviy xarakterli harakatlar to'g'risidagi xabarlarga taalluqli bo'lgan hisobotni taqdim etadi va unda quyidagilar ko'rsatiladi:

kelib tushgan taaluqli xabarlar va ko'rib chiqilgan taaluqli xabarlar soni;

korrupsiyaviy harakatlar, manfaatlar to'qnashuvi holatlari tasdiqlangan taaluqli xabarlar soni;

ko‘rib chiqish muddatlari buzilgan taaluqli xabarlar soni;  
taaluqli xabarlarni ko‘rib chiqishning o‘rtacha muddati;  
murojaatchilar tomonidan eng ko‘p foydalaniladigan aloqa kanallari va boshqa statistik ma’lumotlar.

### **6-bob. Yakuniy qoida**

**30.** Mazkur Reglament talablarini buzish belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.

**31.** Mazkur Reglament, murojaatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi o‘zgarganda qayta ko‘rib chiqilishi lozim.